



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 11 2024-YIL 24-DEKABR

Yangi yil tabrige



Tarix sahifalaridan joy olayotgan 2024-yilda yurtimizning barcha sohalarida ulkan yutuqlar qo'liga kiritildi. Bu esa Prezidentimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan odilona siyosat natijasi, deb aytish mumkin.

O'tgan 2024-yil – "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" Akademiya hayotida muhim voqealarga boy bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi biz kutgan natijalarni berdi. Dunyoning ko'zga ko'ringan oliy ta'lrim muassasalari bilan yo'lda qo'yilgan hamkorliklar bizning qo'iga kiritgan yutuqlarimizdan sanaladi. Ilmiy tadqiqotlar borasida ham ahamiyatga molik, ijobjiy yutuqlarga erishildi. Quvonarlisi yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlar va ixtirochilik ishlari respublikamiz jamoatchiligi e'tiborini qozondi.

Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va sport sohasida qilingan ishlar, qo'iga kiritilgan yutuqlar ham o'ziga xos salmoqqa ega. Akademiyamizda tahsil oluvchi talabiyoshlarning yutuqlarini ko'rib, olib borilayotgan tizimli ishlarning samarasini, desak mubolag'a bo'lmaydi. Talaba yoshlar orasida Prezident, Ibn Sino nomdor stipendiantlarning ko'plab

chiqqani quvonarli hol. Shu bilan birga, Toshkent tibbiyot akademiyasida faoliyat ko'ssatgan mashhur akademik va professor nomidagi stipendiya ta'sis etilib, ko'plab talabalarimiz sazovor bo'lishdi. Bu kabi yoshlarimizning safi yanada kengayishiga tilakdoshman.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi taklif etildi. Qutlug' qadamlar bilan kirib kelayotgan yangi yilda ham Akademiyamiz jamoasi katta-katta rejalarini amalga oshirish, bir qator xayriy tadbirlarni o'tkazishni mo'ljallamoqda.

Qadrli ustozlar, muhtaram professor-o'qituvchilar, aziz talabalar!

Sizlarni yana bir bor kirib kelayotgan Yangi yilingiz bilan chin qalbimdan muborakbos etaman. Ilmiy, ijodi, o'qishdag'i faoliyatingiz va intilishlarining muvaffaqiyatlar, oilangizga totuvlik, o'zingizga mustahkam sog'liq, xonadoningizga fayz-u baraka tilayman!

Yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson murod-maqsadiga yetsin! Kirib kelayotgan Yangi yil ona diyorimiz va har bir xonadonga fayz-u baraka, yangi yutuq va zafarlar olib kelsin! Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin!

**SH.BOYMURADOV,
TTA rektori v.v.b,
professor**



*Ezgulik insonning ma'naviy
olamidagi quyoshdir.*

V. GYUGO





XALQARO ALOQALAR YANADA KENGAYMOQDA

Toshkent tibbiyot akademiyasi va Qozon davlat tibbiyot universiteti bilan aloqalar yanada kengaymoqda.

TTA rektori v.v.b Shuhrat Boymuradov boshchiligidagi delegatsiya Qozon davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurib, rektor Aleksey Sozinov boshchiligidagi

universitet rahbariyati bilan uchrashdi.

Unda universitetlar o'ttasida tashkil etilgan qo'shma ta'lif dasturini davom ettirish, akusherlik va ginekologiya bo'yicha klinik ordinatura qo'shma dasturini tashkil etish hamda o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha muzokaralar olib borilib, kelishuvlarga erishildi.

TANLOV G'OLIBLARINI TABRIKLAYMIZ

Toshkent tibbiyot akademiyasida "Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi" mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda Akademianing yosh olimlari va talabalari ishtirok etdi, mutaxassislar tomonidan mualliflik maqolalari tekshirildi hamda 10 ballik tizimda baholandi. Har bir maqola, uning stilistik jihatlari, uslubiy ifodasi, orfografik xatoliklari va mazmuniga alohida e'tibor berildi.

Eng yuqori ball to'plagan 3 nafar g'oliblar bilan tanishing:

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof-muhit

muhofazasi va kimyo fakulteti 4-bosqich talabasi Boysariyeva Marjona – 8,5 ball 1-o'rin, 1-darajali diplom;

Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi magistri Xomidov Mirjalol Ne'mat o'g'li – 8 ball 2-o'rin, 2-darajali

diplom;

2-son Davolash ishi fakulteti talabasi Ismoiljonova Istorabegim – 7,5 ball 3-o'rin, 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Barcha ishtirokchilarni tabriklab, muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!



*Hayotimizning abadiy va oliy maqsadi – ezgulikdir.
Yaxshilikni biz qanday tushunmaylik, hayotimizning o'zi
yaxshilikka intilishdan boshqa narsa emas.*

L.TOLSTOY



EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASINING DOLZARB MUAMMOLARI



Kuni kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Prezidentimiz 2025-yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilgani Yangi O'zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi.

Aslida mamlakatimizning go'zal tabiatini, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvlari asrlar davomida insoniyatni maftun etib keladi. Biroq, sanoatning rivojlanishi, energiya resurslariga talabning ortishi, tabiatga munosabatning o'zgargani iqlim o'zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, suv taqchilligi kabi muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Darhaqiqat, ona yurtimiz ekologiyasini asrab-avaylash, uni yaxshilash yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar va Sog'liqni saqlash vazirliklarining qator buyruq va ko'rsatmalari mavjud bo'lib, bu borada talay ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi "Atrof-muhit gigiyenasi" kafedrasida bu borada uzoq yillardan buyon atrof-muhit muhofazasi va inson salomatligi bilan bog'liq bo'lgan qator xalqaro anjumanlar o'tkazib kelinmoqda. Bu yil ham davlatimiz rahbari chaqiriqlariga labbay degandek Toshkent tibbiyot akademiyasida "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasining dolzarb muammolari" mavzusida xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman bo'lib

o'tdi.

Ilmiy-amaliy anjumanining maqsadi:

- O'zbekistonda ekologiya va atrof-muhit muhofazasining dolzarb muammolari sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini muhokama qilish va bu boradagi xorijiy tajriba bilan tanishish.

- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha laborator va instrumental tekshiruvlar olib borishni kuchaytirish, aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha ilmiy asosda chora-tadbirlar ishlab chiqish, turli kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

- Sog'liqni saqlash amaliyotiga zamonaviy va an'anaviy tibbiyotning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy dalillarga asoslangan usullarini joriy etish.

- Atrof-muhitni muhofazalash bo'yicha uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, yetakchi universitetlar va ilmiy-innovatsion markazlar bilan samarali hamkorlikni yo'lg'a qo'yishdan iborat bo'ldi.

Mazkur xalqaro anjumanga mahalliy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlaridan olimlar va professor-o'qituvchilar ham tashrif buyurdi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi olimlari bilan bir qatorda Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar hamda yosh olimlar tomonidan qilingan 20 dan ortiq ma'ruzalar asosida atrof-muhit va inson salomatligi muhofazasining

dolzarb muammolariga va inson salomatligi muhofazasini nazorat qilish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish, kasalliklarni kelib chiqishida ekologik omillar ta'sirini o'rganishga hamda bu omillarning zararli ta'sirini bartaraf qilish maqsadida zarurli sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga oid tadqiqot ishlari natijalarini qilish.

Anjuman mavzusidan kelib chiqqan holda TTA professor-o'qituvchilari, yosh olimlari, magistrlar hamda talaba-yoshlari o'tasida bir-birlari bilan tajriba almashish maqsadida Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalari kabi davlatlar o'zarbo'li hamkorlikni yo'lg'a qo'yish bo'yicha kelishib olindi. Shuningdek, anjumanda atrof-muhitni himoyalashga asoslangan assotsiatsiya tuzish rejalashtirilib, magistrlik dissertatsiya ishlari natijalari tahlil qilindi. Koryo Universiteti professor-o'qituvchilari va TTA professor-o'qituvchilari hamkorligida mahorat darslar tashkillashtirish rejalashtirildi.

Anjumanda mahalliy va xorijiy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari hamda professor-o'qituvchilar onlayn va offlayn ishtirop etishdi. Anjumanda 100 dan ortiq ishtiropchilar qatnashdi va 20 dan ortiq ma'ruzalar tinglandi. Barcha anjuman qatnashchilariga sertifikat, dastur, tezislar to'plami, esdalik sovg'alari, suvenirlar topshirildi.

F.SALOMOVA,
Atrof-muhit gigiyenasi kafedrasini
mudiri, t.f.d., professor,
L.ABDUKADIROVA,
Atrof-muhit gigiyenasi kafedrasini
dotsenti



*Boshqalarga shodlik ato etish
– eng noyob shodlikdir.*

J. LABRUYER



Angliyada...



Angliyada yangi yil sovg'asiz nishonlanadi va oila davrasida nishonlanishi shart emas. Bu bayram tantanasining an'anaviy taomi yo'q. Odatga ko'r'a ingliz uybekalari olmali pirog tayyorlashadi. Angliyada esa omadni uya ko'mir parchasini yoki stakanda toza suv olib kelgan kishi keltiradi.

Ispaniyada...

Yangi yil Ispaniyada – mamlakatning davlat bayramlaridan biri hisoblanadi. Yangi yil bayrami ommaviy tarzda nishonlanadi. Bayram tunida xalq mamlakatning katta va kichik shaharlaridagi bosh maydonlarda to'planishadi, ular qadimiy soat va qo'ng'iroqlarning bong urishini kutadilar. Ispan yangi

DUNYO MAMLAKLARIDA YANGI YIL BAYRAMI



yil marosimlaridan eng qiziqarlisi – 12 dona uzum iste'mol qilish marosimidir.


AQShda...



1 yanvar – Amerika Qo'shma Shtatlarida rasmiy ravishda Yangi yilni nishonlashadi, biroq 31 dekabrdan xalq sayllari boshlanadi. AQShda Yangi yilni kutib olishning

eng asosiy qoidasi – xursandchilik. Amerikaliklar uchun Yangi yil – yangi hayotning boshlanishidir. Amerikaliklar bayramda o'z oldilariga turli muhim o'zgarishlarni qo'yadilar.

Germaniyada...



Yangi yil bayramini nemislar uyda nishonlamaydilar. Ular tanishlari, hamkasblari va do'stlari bilan uchrashib, yaxshi tilaklarni bir-biriga bildirishadi. Bu kuni hech kim o'zini yolg'iz his qilmaydi, chunki soat birinchi bong urishi bilan odamlar ko'chaga chiqishadi va Yangi yil munosabati bilan salyut boshlanadi.

Nozima MIRAZIMOVA,
TTA 2-davolash fakulteti talabasi
tayyorladi



Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b Sh.Boymuradov boshchiligidagi delegatsiya a'zolari Rossiya Federatsiyasiga tashrif buyurdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati Boshqirdiston davlat tibbiyot universiteti rektori Pavlov Valentin Nikolayevich bilan uchrashdi. Tashrif doirasida delegatsiya a'zolari Boshqirdiston davlat tibbiyot

universiteti rektorat kengashida ishtirok etib, o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish haqida muzokaralar olib bordi. Shu kunning o'zida hamkorlik memorandumiga erishildi.

Uchrashuv davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi delegatsiya a'zolari Boshqirdiston davlat tibbiyot universitetida ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalar bilan suhbatda bo'ldi.



*Odamlarga mehr – bu shunday qanotdirki,
u bilan inson eng yuksakka parvoz qiladi.*

M. GORKIY



“MED MENTOR CIRCLE” KLUBI TASHKIL ETILDI



Toshkent tibbiyot akademiyasi Yoshlar ittifoqi BT huzurida talabalarining tibbiy bilimlarini oshirish va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida “Med Mentor Circle” klubini ochildi.

Klubning ochilish marosimida TTA yoshlar masalalari va ma'nnaviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektori T.Bobomuratov

ishtirok etib, talabalarning bunday tashabbuslari akademiya tomonidan doim qo'llab-quvvatlanishini ta'kidladi.

Marosim davomida klubning e'loniga javob bergan talabalar orasidan saralab olingen va 1 haftalik mahorat darslarini muvaffaqiyatli tamomilagan ishtirokchilarga ishonch yorliqlari topshirildi.

Tadbir davomida qatnashchilar

klubning maqsad va vazifalari hamda yarim yillik ish rejsasi bilan tanishdilar. Yakunda barchaga ko'tarinkи kayfiyat ulashgan jamoaviy o'yinlar tashkil etildi.

“Med Mentor Circle” klubini yoshlarning akademik salohiyatini oshirish va tengdoshlar orasida bilim almashish platformasi sifatida faoliyat olib boradi.

Sport



Oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'rtasida “Besh tashabbus olimpiadası” doirasida sportning mini futbol, stol tennis, voleybol, yengil atletika, stritbol turi bo'yicha Toshkent shahar bosqichi o'tkazildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi musobaqada faol ishtirok etib, quyidagi natijalar qayd etildi.

Stol tennis (o'g'il bolalar) – I-o'rin Toshkent tibbiyot akademiyasi – Thomas Ritesh Allen.

Qiz bolalar – III-o'rin Toshkent tibbiyot akademiyasi – Ahmadjonova Muhayyo.

Voleybol (qizlar) sport turi bo'yicha O'zbekiston davlat



jahon tillari va Toshkent davlat transport universitetlari ustidan g'alaba qozonib, yarim finalda Toshkent davlat iqtisodiyoti universitetidan mag'lubiyatga uchrab, musobaqa yakunlandi.

Futbol sport turi bo'yicha – Xalqaro islam akademiyasi, Toshkent kimyo-tehnologiya instituti va Adju universitetlar ustidan g'alaba qozondi.

TTA Matbuot xizmati



*Men ezgulikdan boshqa biror
afzallikni bilmayman.*

L. BETXOVEN



ONAJONIM

*Onajonim oftob chehram,
Nuridiydam o'zingiz.
Gullarga teng gul qiyosim,
Dilda borim o'zingiz.*

*Onajonim, baxtimga siz
Sog'-salomat bo'lingiz.
Davralarda o'ynab kulgan,
Davlatim siz, bilsangiz.*

*Onajonim, sizga bo'sgan
Bu mening dil so'zlarim.
Quvonadि kо'rganida,
Ona sizni kо'zlarim.*

*She'r yozmagan kunim yo'q,
Sog'inmagan tunim yo'q.
Qiblagoh qadrdonim,
Shoirlikka da'vom yo'q.*

*Sizga ta'zim qilaman,
Boshim yerga tegguncha.
Xasta bo'smang onajon,
Men shifokor bo'sguncha.*



Shahnoza ABDURAXMONOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-davolash fakulteti talabasi



G'ALABA MUBORAK

Toshkent shahrida karatening "ITKF" turi bo'yicha Osiyo championati bo'lib o'tdi.

Championatda "Kate" va "Kumite" yo'nalishlari bo'yicha Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy-profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi hamda kimyo fakulteti 3-bosqich talabasi Shavkatova Anjelina Sanjar qizi 3-o'rinni egallab, Jahan championatida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Turkiyada bo'lib o'tadigan Jahan championati musobaqasida talabamiz Anjelina Shavkatovaga omad va zafarlar tilab qolamiz.



KASBIM – FAXRIM MENING

Shifokorlik kasbiga qiziqishim yoshligimdan shakllangan desam mubolag'a bo'lmaydi. Sababi oilamizda ota-onam shifokor bo'limasa-da, bobom va buvimlar shu sohada faoliyat olib borishgan.

Yodimda ular ishlaydigan shifoxonaga borganimda yoki oila davrasida o'tirganimizda insonlar salomatligini asrashda olib borilayotgan ishlar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, kasalliklarning oldini olish borasidagi suhbatlari meni bu sohaga bo'lgan qiziqishimni yanada oshirgan. Shuningdek, bemolarning dardiga malham bo'lib, ularni yana qayta hayotga qaytarган onlaridagi vaziyatni ko'rganimda ko'nglimda o'zgacha bir tuyg'u o'tar edi.

Aholining shifokorlarga qilgan minnatdorchilik izhorlari, qo'lida shifo topgan ota-onalari-yu, farzandlarining bag'riga qaytish jarayonidagi voqeа-hodisalarни ta'riflashga so'z topolmaysiz. Shifokor qo'lida dardiga malham topgan, kelajakka bo'lgan umidi uyg'ongan insonlarning hayajoni va chin dildan aytilgan tashakkuri har bir insonni sharafli kasbga bo'lgan mehrini, e'tiborini uyg'otmay qolmaydi. Shu bois ham har bir davr va zamonda shifokorlar e'zozlangan, qadrlangan.

Men ham sharafli va mashaqqatli kasbga bo'lgan qiziqishim sabab Toshkent tibbiyot akademiyasiga o'qishga topshirdim va 2024-yil shu dargohning 1-kurs talabasiga aylandim. Bu yutuqqa erishish yo'lidagi mehnatlarim, izlanishlarim va ustozlarim ta'lif-tarbiyasini qunt bilan o'rganganimning ijobatligini ko'rdim.

Haqiqatda mehnat qilgan, izlangan, o'qib-o'rgangan inson albatta o'z maqsadida erishishiga amin bo'ldim. Shuningdek, barcha yoshlar havas qilgan Toshkent tibbiyot akademiyasidek dargohning talabasi bo'lganimdan baxtiyorman. Har kuni shu dargohga qadam bosar ekanman, ko'nglimda shukronalik tuyg'usi paydo bo'ladi. Kelajakda o'z sohamning yetuk mutaxassisini bo'lib kamol topish yo'lida tinimsiz o'qib, izlanib xalqim uchun xizmat qilishni o'z oldimga maqsad qilib qo'rganman.

Men o'z kasbimdan faxrlanaman.

Abduhamid XOLBOYEV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
2-davolash ishi fakulteti 1-kurs talabasi



*Hamma narsani boy berilgan taqdirda ham hali
oldinda keljak bor.*

K. BOUVI



Xalqaro olimpiada TIBBIYOT MOHIRLARI



Toshkent tibbiyot akademiyasi Akademik litseyida "Tibbiyot mohirlari" tibbiy-amaliy ko'nigmalar IV xalqaro olimpiadasi bo'lib o'tdi.

"Tibbiyot mohirlari" amaliy ko'nigmalar bo'yicha IV xalqaro olimpiadasi TTA va barcha oliy ta'lim muassasalarini talabalarini yosh tadqiqotchilar sifatida o'z qobiliyatlarini namoyon etish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning innovatsion potensiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan. Olimpiadani o'tkazishdan asosiy maqsad talabalarni ta'lim va ilm-fan integratsiyasiga jaib etish orqali jamiyatimizni tibbiyot ilmi sohasini rivojlanishini ta'minlashda iqtidorli talaba-yoshlarning faol ishtiroy etishini rag'batlantirishdan iborat.



Shu maqsadda 2021-yildan boshlab chet eldag'i va respublikamizning barcha hududlarida joylashgan oliy ta'lim muassasalaridan tibbiyot talabalari qatnashib kelmoqda. Joriy yil o'tkazilgan olimpiadada Tatariston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Respublikamizdagi 26 ta oliy tibbiyot muassasalarining jamoalarini qatnashdi.

Xalqaro olimpiadada g'olib bo'lgan jamoalar Toshkent tibbiyot akademiyasining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

AJDODLAR YODI



Ustozimiz Abu Rayhon Al-Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi va fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor Nosir Komilovich Axmedov tavalludining 102 yilligi munosabati bilan shogirdlar va kafedramiz xodimlari katta hayajon bilan Akademianing Odam anatomiysi va OXTA kafedrasiga kirib keldik.

Nosir Komilovich Axmedov bosib o'tgan sharafli va ibratlil umr yo'li zarvaraqlarini birma bir varaqlab o'tmish xotiralarini esladik. Shunda mening esimga ustozni talab va yordamlari bilan tibbiyot fanlari nomzodi bo'lganligim, birinchi marta anatomiya fanidan ma'ruza o'qiganim va 1997-yilda dotsentlikka qabul qilinganligim esimga tushib ketdi. Birinchi ma'ruza o'qigan kunim menga ma'ruza tayoqchasini sovg'a qilgan edilar, mana shu tayoqcha 27 yildan beri menga sehrli tayoqchaga o'xshab ilmiy va o'quv ishlarmida ilhom baxsh etadi.

Bugungi kunda ustozimni yod olib, uning bergen o'git, olgan bilimlarimizni hayotga tatbiq etmoqdamiz.

**Zumrat SODIQOVA,
tibbiyot fanlari doktori, professor**

YOSHLAR KORRUPSIYAGA QARSHI

Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son davolash fakulteti tomonidan "Yoshlar korrupsiyaga qarshi" mavzusida rasmlar tanlovi tashkil etildi.

Ushbu tanlov yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurash tuyg'usini shakllantirish, adolat va ijtimoiy mas'uliyatni targ'ib qilish maqsadida o'tkazildi. Rasmlar tanlovida g'oliblar aniqlanib, ularga esdalik sovg'alari topshirildi. Ishtirokchilarning ijodiy ishlari yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otdi.

**R.XURRAMOV,
2-son davolash fakulteti ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinosari**



*Hammamiz uchun nima mushtarak?
Umid. Chunki odamning hech narsasi
bo'lmasa ham umidi bor.*



FALES

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI
LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI
(2024-yil dekabr)**

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1	Onkologiya	dotsent – 1,0
2	Normal va patologik fiziologiya	katta o‘qituvchi – 1,0
3	1-son travmatologiya va ortopediya va XDX	assistant – 1,0
4	Urologiya	assistant – 1,0
5	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi	assistant – 1,0
2-son davolash fakulteti		
6	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	assistant – 1,0
7	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	katta o‘qituvchi – 1,0
8	2-son travmatologiya va ortopediya va XDX neyroquirgiya	assistant – 1,0
9	Tibbiy radiologiya	katta o‘qituvchi – 1,0
10	Klinik farmakologiya	katta o‘qituvchi – 1,0
11	Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya	dotsent – 1,0
12	Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya	katta o‘qituvchi – 1,0
13	Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya	assistant – 1,0
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti		
14	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	assistant – 1,0
15	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistant – 1,0
16	2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar	assistant – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
17	1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar preventiv tibbiyot asoslari	assistant – 1,0
Xalqaro fakultet		
18	O‘zbek va xorijiy tillar	katta o‘qituvchi – 1,0
19	O‘zbek va xorijiy tillar	o‘qituvchi – 1,0

Hujjatlar tanlov e’lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo‘limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko‘chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFIda
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko‘chasi, 2-uy
Nashr uchun mas’ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi